

**YER TEKISLASH MASHINALARI VA ULARDAN UNUMLI  
FOYDALANISH**

*T.f.f.d., (PhD) dotsent Qo'chqorov Jur'at*

*O'lmasov Suxrobbek – talaba*

*TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti,  
Buxoro, O'zbekiston*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Fermer xo'jaliklari ekin maydonlarini joriy tekislash ishlarida qo'llanadigan texnikalarni modernizatsiyalash bazali tekislagichlarning ish sifatini yaxshilash traktor – mashina agregatlarini ish unumiga bog'liqligi, yoqilg'i sarfini kamaytirishni va tekislash agregatlarini takomillashtirish maqsad qilib olingan. Shular jumlasidan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va sifatli tekislash hozirda dolzarb muammolardan biridir.

**Kalit so'zlar:** Fermer xo'jaliklari, Yer tekislash mashinalari, meliorativ holatini yaxshilash.

Bugungi kunda yerlarning tekislik darajasini yaxshilash, uning sifatli tekislash ishlarini amalga oshirish va bu ishlar uchun ish unumdorligi yuqori tekislagich agregatini yaratish dolzarb masala hisoblanadi. Fermer xo'jaliklari ekin maydonlarini joriy tekislash ishlarida qo'llanadigan texnikalarni modernizatsiyalash bazali tekislagichlarning ish sifatini yaxshilash traktor – mashina agregatlarini ish unumiga bog'liqligi, yoqilg'i sarfini kamaytirishni va tekislash agregatlarini takomillashtirish maqsad qilib olingan. Shular jumlasidan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va sifatli tekislash hozirda dolzarb muammolardan biridir.

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, mavjud ekin yerlarini meliorativ holatini yaxshilash va uni tekislash amalga oshiriladigan dehqonchilik texnologiyasiga bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki qishloq xo'jaligi mahsulotining 90% dan ortig'i sug'orish orqali amalga oshiriladigan dehqonchilik usulida ishlab chiqariladi. Mazkur holat qishloq xo'jaligida suv resurslari nihoyatda katta ahamiyatga egaligidan dalolat berib ularning tanqisligi nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishga, balki mamlakatning butun iqtisodiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi paytda yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, suvni tejab foydalanish kabi ishlar tobora avj olmoqda. Shu o'rinda aytib o'tish joizki yana bir dolzarb muammoga aylanib borayotgan yerlarni meliorativ holati buzilishi va sho'rlanish darajasining oshib borishidir. Bu muammoni qisman oldini olish bu sifatli tekislashga bog'liqdir. Yerdan yuqori hosil olishda yerning tekisligi va yerni tekislashda

ishlatiladigan yer tekislash mashinalar katta rol o'ynaydi. Tuproqqa bir necha marta ishlov berilganda sug'orish davomida yerdagi notekisliklar vujudga keladi. Bu muammoni yerlarni joriy tekislash ishlari va mashinalari orqali meliorativ holatini yaxshilash tavsiya etiladi. Vaqtinchalik sug'orish tarmoqlari, yerlarga ishlov berish jarayonida hosil bo'lgan notekisliklar tekislanadi. Bunda osma greyder va uzun bazali yer tekislagichlar qo'llaniladi. Joriy va ekishdan oldingi yer tekislash ishlari rejalashtirilib har yili o'tkaziladi.

*Yer tekislashning ahamiyati* - Yer qanchalik tekis bo'lsa qishloq xo'jalik mashinalari yuqori unum bilan ishlaydi, yerlarni sho'ri yaxshi yuviladi, urug'lar bir xil chuqurlikka tushadi, ularni unib chiqishi ham bir xil bo'ladi, 6-7% suv tejaladi. Hamma dalalarda bir vaqtda tekislash ishlari olib borib bo'lmaydi, shuning uchun bu ishlar yuqorida aytib o'tilganidek rejalashtirish asosida olib borilishi shart. Tekislangan dalada namlik bir tekisda tarqaladi, tuproq bir vaqtda yetiladi va g'oz qator oralariga sifatli ishlov beriladi. Tekislanmagan yerda chuqur joyda namlik bo'lib baland joylari qurib ketadi. Bunday yerlarni kutivator bir xil chuqurlikda yumshata olmaydi. Yerlar tekislanisa tuproq zichlashib qoladi. Tekislash ishining birinchi bosqichida greyderlardan foydalanib tekislanisa maqsadga muvofiq bo'ladi. Yer qanchalik tekis bo'lsa namlikni o'zida yaxshi saqlaydi va sug'orish normasi kamaydi. Tekislangan maydonlarda hosildorligi 40% gacha oshadi, sug'orishda suv sarfi 2 marta kamayadi [3]. *Yer maydoni o'z vaqtida tekislanmasa* - Ish sifatini pasaytiradi, yumshatilmagan yerlarda yirik kesaklar paydo bo'ladi, o'simlik yaxshi rivojlanmaydi, sho'r yuvish ishlari sifatsiz o'tkaziladi. Yer tekislash mashinalarini ham yerdan o'tishini 6-7 martadan bir-ikki martagacha keltirish kerak. Chunki yurgan izi tuproqni qotiradi ko'p zichlashtiradi. Ilgari haydalgan va tosh hamda g'ozapoya qoldiqlaridan tozalangan dalalarni va ekish oldidan tekislash uchun uzun bazali yer tekislagichlar bilan tekislashni tavsiya etamiz. Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligini rivojlantirish yer resurslari va ularning bugungi kundagi meliorativ holati bilan bevosita bog'liq. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligini ta'minlashda ilm-fan yutuqlari, olim va mutaxassislarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etishini yaqqol namoyon etmoqda.

Bu muammolarni bartaraf etishda yuqorida bayon etilgan izlanish natijalari va o'tkazilgan tajribalar sug'oriladigan yer maydonlarini tekislash yerlarni meliorativ holatini yaxshilash bilan birga quyidagi afzalliklariga ega ekanligini ko'rsatadi [2].

- Jo'yaklab sug'orish unumdorligi 4 martaga oshadi;
- Sug'orilgan yerlar bir tekis suv ichadi va tuprog'I bir vaqtda etiladi;
- Tuproq sho'rlanishining oldi olinadi, chunki yer osti suvining ko'tarilishi sekinlashadi va natijada tuzlarning yer ustki qatlamiga chiqishi kamayadi;
- Qator oralariga sifatli ishlov berish ta'minlanadi;

- Barcha agrotexnik tadbirlarni sifatli va yuqori tezlikda bajarish imkoniyati yaratiladi;

- Ekinlar hosildorligi oshadi;
- Mexanizatorning ish sharoiti yaxshilanadi;

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, sug'orilgan yerlarni meliorativ holatini yaxshilashda yerlarni sifatli tekislash juda katta ahamiyatga ega ekanligini yuqorida keltirilgan fikrlar va qator tadbirlardan ko'rishimiz mumkin. Takomillashtirilgan yer tekislash mashinalarini o'z vaqtida va sifatli yer tekislash ishlariga jalb qilish ekin maydonlarini meliorativ holatini yaxshilash hamda hosildorlikni oshirish bilan birgalikda suvni iqtisod qilishga ham olib keladi, bu esa o'z o'zidan ko'rinib turibdiki qishloq xo'jaligini rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi № PF-4533 sonli farmoni.

2.“Qishloq va suv xo'jaligining zamonaviy muammolari” mavzusida ilmiy amaliy anjuman materialari II-qism. Toshkent 2013 yil

3. Atamurodov, B. N., Ibodov, I. N., Najmiddinov, M. M., & Najimov, D. Q. The Effectiveness of Farming in the Method of Hydroponics. *International Journal of Human Computing Studies*, 3(4), 33-36.

4. Сатторов, Ш. Я. (2020). Use of aerocosmic methods and gis programs in construction of space data models of pastoral land. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-4), 16-22.

5. Kurbanmuratovich, M. R., Jalilovich, K. J., Ugli, I. I. N., & Ugli, N. M. M. R. (2021). RESULTS OF APPLICATION OF SOFTENING SPHERICAL DISC WORKING ORGANNI IN FRONT OF THE BASE SMOOTHING BUCKET. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(07), 14-22.

6. Juraev, F. U., Ibodov, I. N., Juraev, A. J., Najimov, D. K., & Isoyeva, L. B. (2021, October). Development of procedures for corn varieties irrigation as main crops. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 868, No. 1, p. 012089). IOP Publishing.

7. Juraev, F., Khamroyev, G., Khaydarova, Z., Khamroyev, I., & Ibodov, I. (2021). The usage of a combined machine in the process of preparing the land for planting. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04092). EDP Sciences.

8. Муродов, Р. А., Барнаева, М. А., Ибодов, И. Н., & Ёкубов, Т. А. (2020). Динамика объемной влажности при послойно-позтапном рыхлении на фоне горизонтального систематического дренажа. *Экономика и социум*, (11 (78)), 933-936.

9. Ulugbekovich, M. O., Sobirovich, K. B., Komiljonovna, S. M., & Nizomiy ogli, I. I. (2020). Smart irrigation of agricultural crops. *Middle European Scientific Bulletin*, 3, 1-3.
10. Jalilovich, K. J., Xurram, N., & Nizomiy, I. I. (2021). Theoretical Approach To Determining The Demand For Land Leveling In The Bukhara Region. *International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS)*, 5(2), 162-164.
11. MURADOV, O., KATTAYEV, B., & SAYLIXANOVA, M. Sprinkler Irrigation Equipment and Types of Them. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(05), 45-47.
12. Kurbanmuratovich, M. R., Jalilovich, K. J., Ugli, I. I. N., & Ugli, N. M. M. R. (2021). TO EXAMINE THE EFFECT OF LEVELING AGGREGATES ON PRODUCTIVITY IN THE LEVELING OF CROP AREAS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(07), 30-35.
13. Bakhtiyorovna, I. L., & Baxodirovna, B. N. (2021). Development Of Procedures For Irrigation Of Corn Variets AS Main Crops. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 109-113.
14. Jalilovich, K. J., & Kurbanmuratovich, M. R. (2021). EFFECTIVENESS OF APPLICATION OF MODERN MELIORATIVE TECHNIQUES IN CLEANING OF OPEN COLLECTORS AND DRINKS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(6), 1-4.
15. Fazliev, J., Khaitova, I., Atamurodov, B., Rustamova, K., Ravshanov, U., & Sharipova, M. (2019). Efficiency of applying the water-saving irrigation technologies in irrigated farming. *Интернаука*, 21(103 часть 3), 35.
16. Фазлиев, Ж. Ш., Хаитова, И. И., Атамуродов, Б. Н., Рустамова, К. Б., & Шарипова, М. С. (2019). ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ БОҒЛАРДА ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. *Интернаука*, (21-3), 78-79.
17. Fazliyev, Z. S., Shokhimardonova, N. S., Sobirov, F. T., Ravshanov, U. K., & Baratov, S. S. (2014). Technology of the drip irrigation use in gardens and vineyards. *The Way of Science*, 56.